

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV
RIVOJLANISHIDA NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘YIN
TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Aliyeva Odila Madamin qizi

MTTDMQTUMOI tayanch doktoranti

+998 97 624 73 53

e-mail: eraliyevaodila1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishida neyropedagogik yondashuvlar asosida o‘yin texnologiyalarining ahamiyati, maktabgacha ta‘lim tizimida va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yin texnologiyalari ta‘lim jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligi, o‘yin orqali bolalarning intellektual rivojlanishida olimlarning fikri, didaktik, sensor, kognitiv, mantiqiy o‘yinlar hamda neyrogimnastik mashqlar orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish haqida yoritilgan. Bundan tashqari bolalarning kognitiv rivojlanishida ta‘lim jarayonidagi o‘yinlar, ularning yosh xususiyatlari, individual va intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda tanlash ham berib o‘tilgan.

Kirish. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratidadir⁷³. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida ilk bor maktabgacha ta‘lim tizimi qayd etildi. Maktabgacha ta‘lim bolalarga ta‘lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta‘lim turi hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim-bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishi, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy-axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta‘minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yonaltirilgan yaxlit jarayondir [2].

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning yuqorida aytib o‘tilgan xususiyatlarini rivojlanishida kognitiv jarayonlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Bolalarning har tomonlama yetuk va komil inson bo‘lishi uchun ta‘lim va tarbiya jarayoni muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar turli xil o‘yin texnologiyalari orqali o‘qitilib kelinmoqda.

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Yangi tahrir. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimi inson shaxsi shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 5–6 va 6–7 yosh davrida bolalarning kognitiv jarayonlari - idrok, tafakkur, e’tibor, xotira, tasavvur va muammoli fikrlash - jadal rivoj topadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur yosh oralig‘ida o‘yin bolalar rivojining asosiy mexanizmi bo‘lib, u bilimlarni o‘zlashtirishni tabiiy, erkin va faol jarayon sifatida shakllantiradi. Kognitiv rivojlanishga yo‘naltirilgan o‘yinlarni ilmiy mezonlar asosida tanlash va ularni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish maktabgacha ta’limning sifat ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3].

Chunki o‘yin bilim berishdagi eng samarali usul hisoblanadi. Nima uchun maktabgacha ta’limda aynan o‘yin orqali ta’lim beriladi? Qanday o‘yinlar ta’lim jarayonida tanlab olinadi? Ta’lim jarayoniga o‘zi qanday o‘yinlar mos tushadi va buni tarbiyachilar qanday aniqlashadi? Kabi savollar mavjud va ularga quyidagicha javob berish mumkin: maktabgacha ta’limda aynan o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bu bolalarga oson va samarali ta’lim berish hisoblanadi. Har doim pedagog-tarbiyachilar ta’limiy faoliyat mavzulari va bolalarning individual, yosh xususiyatlari va intellektual qobiliyatlarini inobatga olgan holatda o‘yin texnologiyalarini tanlashadi.

L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi. Har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

Asosiy qism. O‘yin tuzilishiga- maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O‘yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yin texnologiyalari (ayniqsa, bog‘cha bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkurini rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Bunda o‘yin jarayonida yakuniy natija muhimroq bo‘ladi [4].

O‘yinning qiymati o‘yin-kulgi va dam olish imkoniyatlarini o‘rganish va baholashning iloji yo‘q. So‘nggi o‘n besh yil ichida bizning psixologiya va pedagogikamizda bolalar o‘yini muammolari bo‘yicha individual tadqiqotlar olib borildi. Ular asosan o‘yinning eng qadimgi bosqichlariga, o‘yinda bolalarning ijtimoiy munosabatlari, intellektual rivojlanish o‘yining ta’sirining ayrim masalalari bilan bog‘liq.

Nemis psixolog olimi K.Kross o‘yin vositasida bola o‘zini tutish, olamni o‘rganish, an‘analarni bilish, atrof-muhitga moslashish ko‘nikmasini shakllantiradi, degan edi. Ta‘lim texnologiyasi tushunchasi ta‘lim maqsadiga erishish quroli, ya‘ni oldindan loyihalashtirilgan ta‘lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta‘lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi [5].

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishida neyropedagogik yondashuvlar asosida bir qancha o‘yin turlaridan foydalanish mumkin. Biz bu o‘yinlarni quyidagi turlarga ajratamiz: didaktik o‘yinlar, sensor o‘yinlar, kognitiv o‘yinlar, mantiqiy o‘yinlar va neyrogimnastik mashqlarga. Ularning har biri bolalarning ma‘lum bir kognitiv jarayonlarini rivojlantirib boradi. Ularga quyida misollar keltirilgan:

1.Didaktik o‘yinlar! Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra didaktik o‘yinlar bolalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi [6].

Ortiqchasini top! Maqsad: bolalarda mantiqiy tafakkur va taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Jarayon: tarbiyachi 4–5 ta predmet rasmini ko‘rsatadi. Rasmlar orasida bitta ortiqcha predmet bo‘ladi. Bolalar ortiqcha predmetni topib sababini aytadilar.

Rivojlantiriladigan kognitiv jarayonlar: tafakkur, tahlil qilish, taqqoslash.

2.Sensor o‘yinlar! Sensor o‘yinlar bolalarning sezgi organlari orqali atrof-muhitni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi [7].

Ko‘zini yumib top! Maqsad: teginish sezgisini rivojlantirish.

Jarayon: bolalar ko‘zini yumib predmetni ushlab ko‘rib nima ekanini aytadilar.
Rivojlantiriladigan kognitiv jarayonlar: sezgi, idrok.

3.Kognitiv o‘yinlar! Kognitiv o‘yinlar bolalarda diqqat, xotira va tafakkur jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi [8].

Rasmni eslab qol! Maqsad: bolalarda vizual xotirani rivojlantirish.

Jarayon: bolalarga bir necha rasm ko‘rsatiladi. Keyin rasmlar yopiladi va bolalar ularni eslab aytadilar.

Rivojlantiriladigan kognitiv jarayonlar: xotira, diqqat.

4.Mantiqiy o‘yinlar! Mantiqiy o‘yinlar bolalarda sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi [9].

Davomini top! Maqsad: mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

Jarayon: hikoyaboshlanadi, bolalar davomettiradilar.

Rivojlantiriladigan kognitiv jarayonlar: tafakkur, tasavvur.

5.Neyrogimnastik mashqlar! Neyrogimnastika mashqlari miya faoliyatini faollashtirish hamda diqqat va koordinatsiyani rivojlantirishga yordam beradi [10]. **Qarama-qarshi qo‘l harakati. Maqsad:** miya yarim sharlari koordinatsiyasini rivojlantirish.

Jarayon: bolalar o‘ng qo‘l bilan chap tizzaga, chap qo‘l bilan o‘ng tizzaga tegadilar.
Rivojlantiriladigan kognitiv jarayonlar: diqqat, koordinatsiya.

Bu o‘yinlar bolalarda diqqat, xotira, idrok, tafakkur, sezgi organlarini rivojlantiradi. Bu va shunga o‘xshash o‘yinlarni ta‘lim jarayonida qo‘llash orqali biz ta‘lim sifatini yaxshi rivojlanishi va barkamol avlodni yetishib chiqishida o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz. Bolalarning kognitiv jarayonlari rivoji, ularga ta‘lim jarayonida o‘yin orqali bilim berishning o‘z samarasini ko‘rsatadi. Ular ko‘p narsalarni esda saqlab qoladilar. Ularning mustaqil va mantiqiy fikrlashi, hayotiy muammolarga yechim topishi hamda kelajakda ko‘plab yutuqlarga erishishini ta‘minlaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishida neyropedagogik yondashuvning ahamiyati yetarlichadir. Chunki neyropedagogika bu bolaning miya faoliyatining imkoniyatidan kelib chiqqan holatda, ularga kerakli o‘yin texnologiyalarini qo‘llash hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turadiki, neyropedagogika va kognitiv jarayonlar uzviy bog‘liq tushunchalar va jarayonlardir. Bu ikki tushunchani ta‘lim jarayonida birga qo‘llash, bolalarga yaxshi ta‘lim berishni anglatadi. Neyropedagogika bolalarning intellektual qobiliyatlarini inobatga olsa, kognitiv jarayonlar shu intellektual qobiliyatning deborchasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Yangi tahrir. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. G‘oziboyev T.- MAKTABGACHA TA‘LIMNING MAZMUN- MOHIYATI VA TA‘LIM TIZIMIDA TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI// “Innovations in Science and Technologies” ilmiy-elektron jurnali. 2024. №-1.-B.37
3. Fozilova O.N.-MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA (5–6 VA 6–7 YOSH) KOGNITIV RIVOJLANISHGA YO‘NALTIRILGAN O‘YINLARNI TANLASH VA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI//”Ta‘lim vatarqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnal. 2025. №-6. - B.1123
4. D. Yuldasheva, Sh. Umarova- MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMIDA O‘YINLAR TEXNOLOGIYASI// SCIENTIFIC PROGRESS. 2022. №-3. -B.746-748
5. Sarimsoqova M.- O‘YINLARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIYALARI// “Innovations in Science and Technologies” ilmiy-elektron jurnali. 2024. №-1. -B.2011-212
6. Эльконин Д.Б.- Психология игры. Москва: Педагогика. 1978. -Б.135
7. Смирнова Е.О.- Психология дошкольного возраста. Москва: Академия. 2011. - Б. 95
8. Diamond A.-Executive Functions. Annual Review of Psychology. 2013. -P.140

9. Piaget J.- The Psychology of the Child. New York. 1969. -P.67
10. Dennison P.- Brain Gym: Teacher's Edition. 2006. -P.42